XALQ DEPUTATLARI ASAKA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 20-may VII-19-38-1-17-K/26 Asaka tumani

2026-yil Asakatuman bo‘yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyaning 2026-yil 3-fevral kungi 22-06/364-sonli xati hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashi raisining 2026-yil 6-fevral kungi 2-05/25-sonli xatlari asos uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Asaka tuman Kengashining qaror loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar portali (regulation.gov.uz)ga (ID 113782) jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilganligi hamda takliflar kelib tushmaganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Andijon viloyati hududiy boshqarmasining 2026-yil 17-aprel kungi 01-010/100-sonli xati hamda 16-sonli xulosasi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Andijon viloyati boshqarmasining 2026-yil 14-aprel kungi AN-182-sonli xulosasi inobatga olinsin.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari shahar Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5.2026-yil uchun tuman hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.Asaka tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v/b (Sh.Ibrohimov), Asaka tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (T.Shakarimov), Asaka tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Raximov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Mazkur qarorni nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SULTONOV ISROILJON MAMIROVICH**

Xalq deputatlari Asaka tumani
Kengashining
2026-yil 20-maydagi
VII-19-38-1-17-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yigʻimlar stavkalari

Yigʻim turi	Bir oyga (soʻmda)	
	OʻRQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun toʻlanadigan yigʻim miqdori**
“Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	300	360
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	150	180